

## KIBER MAKONDA DIN BILAN BOG'LIQ MUAMMO VA YECHIMLAR

Xasanova Saltanat Sirojiddin qizi

Termiz davlat universiteti 1-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19641855>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada kiber makonda din bilan bog'liq muammolar, xususan, noto'g'ri diniy axborotlarning tarqalishi, ekstremistik g'oyalarning internet orqali yoyilishi hamda yoshlar ongiga salbiy ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, mazkur muammolarni bartaraf etish yo'llari, jumladan, raqamli savodxonlikni oshirish, ishonchli diniy manbalarni targ'ib qilish va davlat hamda jamiyat hamkorligini kuchaytirish masalalari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** kiber makon, din, ekstremizm, axborot xavfsizligi, raqamli savodxonlik, diniy targ'ibot, internet, yoshlar, mafkuraviy tahdid.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются проблемы, связанные с религией в киберпространстве, в частности распространение недостоверной религиозной информации, распространение экстремистских идей через интернет и их негативное влияние на сознание молодежи. Также анализируются пути решения данных проблем, включая повышение цифровой грамотности, продвижение надежных религиозных источников и укрепление сотрудничества между государством и обществом.

**Ключевые слова:** киберпространство, религия, экстремизм, информационная безопасность, цифровая грамотность, религиозная пропаганда, интернет, молодежь, идеологические угрозы.

**Abstract.** This article examines issues related to religion in cyberspace, including the spread of misleading religious information, the dissemination of extremist ideologies via the internet, and their negative impact on youth consciousness. It also explores possible solutions, such as improving digital literacy, promoting reliable religious sources, and strengthening cooperation between the state and society.

**Keywords:** cyberspace, religion, extremism, information security, digital literacy, religious propaganda, internet, youth, ideological threats.

«Kibermakon» tushunchasi va uning mazmun-mohiyati. XXI asr axborot asri deb e'tirof etilayotgani bejiz emas. Insoniyat tarixida ma'lumotning muhimlik darajasi bu kabi yuqori cho'qqilarni zabt etmagan edi. Insonlarni yangi bilimlarni egallashga qiziqishi tobora ortib borayotgan globallashuv jarayonida ijtimoiy ongni zaharlashga qaratilgan tajovuzlar, mamlakatning axborot boshqaruvini izdan chiqarishga urinishlar tobora ortib bormoqda.

Bunda yoshlarning axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanish madaniyatini yuksaltirish orqali ularda turli mafkuraviy tahdidlarga, xususan, diniy ekstremizm, terrorizm, «ommaviy madaniyat» va boshqa yot g'oyalarga qarshi mustahkam immunitetni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunday jarayonlarni amalga oshirishda esa kibermakon qulay muhit manbaiga aylanib ulgurgan.

Kibermakon dunyo komp'yuter tarmoqlarining «virtual» umumiy majmui. Ushbu atama 1984 yilda Uilyam Gibsonning «Neyromant».

Qayd etish lozimki, kibermakonda diniy jarayonlar ko'ri quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi: muloqot, ma'lumot, ta'lim, amaliyot, missionerlik, marketing, shifo va boshqalar.

Internet imkoniyatlari insonlarning muloqotga kirishish va muayyan maqsaddagi fikrlar almashinuvidagi ijtimoiy tarmoqlarga bog'lanish imkonini beradi. Dastlab tashkil etilgan jamoalar orasida Vikkanlar va neomajusiylar kabi noan'anaviy internet guruhlar bo'lgan. Xaydi Kempbell tomonidan xristian jamoalari o'rtasida o'tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra, insonlar onlayn jamoalarga muloqotga kirishish maqsadida a'zo bo'ladilar. Bir qator olimlar virtual muloqotning xarakteriga bog'liq muhim masalalarni ko'targanlar. Uni shunchaki «ijtimoiy hayotning illyuziyasi» yoki «offlayn» dunyoda jamoalarning yaxshilanishiga olib keluvchi vosita sifatida e'tirof etganlar.

Yetakchi diniy tashkilotlar ham hozirgi kunda a'zolar va a'zo bo'lmaganlar orasida komp'yuterlashtirilgan ma'lumot olishga ehtiyojning ortganini ta'kidlaydilar. Di niy ma'lumotlarni tarqatishda elektron di niy ma'lumot tarqatuvchi «bloggerlar» yoki «bloglar» komp'yuterlashtirilgan muloqotning muhim jihati hisoblanadi. Jadal suratlarida «podkastlar», veb-saytdan MR3 pleer, «i-Pod»larga yuklanayotgan audiodasturlar, xususan, malruzalar ommalashmoqda.

Internetning «liminal makon»i malnaviy yoki diniy tajribaga (absorbsiya, asketlik, eskapizm, yagonalik, muloqot) yangi imkoniyatlar ochib bermoqda. Hozirgi kunda ofisda faoliyat yurituvchilar hayot tarziga monand 10 daqiqali ma'naviy mashqlar tajriba orttirishga imkon beradi.

Zamonaviy sufiylar internet orqali bunday aloqalar vositasida murshid va murid o'rtasidagi o'zaro munosabatlar yaxshilanayotganini e'tirof etadilar. Internet-radio kabi yangi texnologik imkoniyatlar yordamida tinglovchilarni «psi xonavi gasion sayohatga» chorlaydilar.

Komp'yuter-media vositalari diniy amaliyotga chuqur singib ketishi natijasida kibermakon muhim rituallar maydoniga hamda muayyan dinga targ'ib qilish manbai va vositasiga aylangan. Bundan tashqari jamiyatdan uzoqlashgan ma'lum bir yoshlar va ayollarni kibermakonaviyat rasmiy ibodatxonalaridan ko'ra ko'proq o'ziga jalb etadi. Amaliyot so'rovlar esa mazkur jarayonlar kelajakda yoshlarni qamrab olishini ko'rsatgan. Ammo ba'zilar internet jonli, ta'sirchan ma'ruza bilan bellasha olmasligini ta'kidlaydi. Shuningdek, onlayn-jamoalar tez suratlar bilan o'zgarayotgan dunyoda «to'g'ri yo'l»da bo'lishning amaliyoti qanday bo'lishiga oid savol va mulohazalarni muhokama qiluvchi muhim «maydon»ga aylandi.

Umumiy olganda kibermakon vaqt va makon chegarasini bosib o'tish imkoniyatini kengaytiradi. Bu esa o'z navbatida moliyaviy qiyinchiligi yoki jismoniy kamchiligi mavjud bo'lgan ma'lum diniy amallarni amalga oshirish imkoniyatini oshiradi.

Muloqotga kirishishning yana bir ko'rinishi bo'lgan missionerlik, ma'lum diniy ta'limning o'sishi va ta'siri doirasining kengligi bois alohida ko'rib o'tish zarur. Bugungi kunda din va e'tiqod erkinligi huquqi eng bahsli masaladir. Muammoli jihati shundaki, yangi murojaat qilganlarni dinga targ'ib qilinishi agressiv ruhda amalga oshirilayotgani bilan belgilanadi.

Muqaddas matnlarning marketingi internet orqali katta biznesga Diniy va ma'naviy ehtiyojga mos keladigan barcha narsani sotib olish i Diniy tanishuv saytlarida esa qalban mos insonni topish oddiy bosqichlarda amalga oshiriladi.

Komp'yuter media vositalarida kasalliklarga davo va muammolarga yechim topish keng rivojlanmoqda. Guru, yevangel istlar, maslahatchi ekstrasenslarga duoli so'rov yuborish yoki diniy va amaliy muammolarga javob topish mumkin. Bunga ko'pechilikni murojaatning anonimligi va kuchli diniy yetakchining ishtiroki jalb etadi.

Yuqorida ko‘rib o‘tilgan jarayonlar internet bugungi kundalik turmushimizga qay darajada chuqur singib borganini namoyon qilmoqda Tobora kuchayib borayotgan globallashuv jarayonida ma'lumotning mazmuni va strategiyasini tahlil qilish muhim. Chunki, bunday xurujlar yoshlarning ma'naviy-axloqiy, psixologik dunyoqarashini, siyosiy nuqtai-nazari va e'tiqodini maqsadli ravishda o'zgartirishga qaratilganligi hech kimga sir emas. Axborot xurujlari va kiber tahdidlardan himoyalaniish, o'z navbatida, ularga qarshi kurashish uchun har bir kishi hushyor va ogoh bo'lishi, axborotni tahlil qila bilishi lozimligini davrning o'zi talab etadi.

Axborotlar oqimidan foydalanish bo'yicha yoshlarda sog'lom immunitetni hosil qilish, ijobiy tomonlarini o'rgatish bilan birga, salbiy oqibatlaridan xabardor etish muhim xar qanday ziddiyat - bu, axborotlar zi ddi yatidir. Axborot har qanday qaror qabul qilish uchun eng muhim unsur bo'lib, u nafaqat, to'qnashuv paytida optimal xatti - harakatlarni amalga oshirish, balki, maqsadga yo'nalgan faoliyatni boshqarish imkonini beradi. Tizim mavjudligi va barbod bo'lishini belgilovchi omillaridan biri hisoblanadi.

Qadim davrlardan buyon axborotni o'zaro urush va nizolar jarayonida hujum uyushtirish yoki himoyalaniish resursi sifatida talqin etishga urinishlar bo'lib keladi. Biroq hozi rga kelib ilmiy doirada «axborot urushi» kategori ya sifatida rasmiylashdi.

Ma'lumki, bola tarbiyasi ota-ona, mahalla, maktab gardaniga tushadi. Bunda yoshlarni keskinlik yoki tazyiq o'tkazib to'g'ri yo'lga solib bo'lmaydi. Hech bir zo'raonliksiz va asosli fikr-mulohazalar bilan tushuntirish ishlari olib borilishi zarur. “Kontrpropaganda” ishlari bosh tezisi – inson olamni o'zgartirish uchun mukammal bilim va chuqur mulohaza yuritsa, jamiyatda mutaxassis va avtoritetga aylansa, uning ergashuvchilari tabiiyki ko'proq bo'ladi. Shunda yaxshi maqsadlarga erishishi muqarrarligi ta'minlangan bo'ladi, deb bosim o'tkazmay, qalban yondashib bolaning ongiga “yetkazish” lozim. Bolaning xatti-harakatlarini mutlaqo qoralash kerak emas. Bu uning qarshi reaksiya – himoya pozitsiyasini qo'llashiga olib keladi.

Kibermakon internet tarmoqlari orqali amalga oshiriladigan muloqot maydonini ifodalovchi voqelik sifatida 1990-yildan boshlab keng miqyosida rivojlanib, takomillashib kelmoqda. Kibermakon tushunchasini dastlab kanadalik yozuvchi Uilyam Gibson 1982-yil “Burning Chrome” nomli hikoyasida yozadi.

Keyinchalik, Gibsonning 1990-yilda yozib tugatgan “Neuromancer” nomli texno-utopik fantastik trilogiyasida qo'llagan. Asardagi kibermakon tushunchasi millionlab odamlarning jamoaviy sarob, xayolparastlikning o'ziga xos ko'rinishi sifatida tasvirlangan. Bu yerda jamoaviy sarob yoki xayolparastlik inson ongida subyektiv psixologik holat sifatida namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy nuqtai-nazardan kibermakon deganda internet tarmog'i orqali bir-biri bilan bog'langan va bir vaqtning o'zida turli geografik nuqtada kesishuvchi har qanday mavjud kompyuterning grafik sifatidagi ma'lumotlariga o'ralashib qolgan kishilar jamoasi tushuniladi.

Hozirgi davrda fan, texnika va asosan internet taraqqiyoti mahsuli bo'lgan kibermakon va uning boshqaruvchi qiyofasi “superkorporatsiya” texnologiyalarning insoniylikdan begonalashuvi natijasida din niqobidagi ijtimoiy va madaniy buzg'unchilikni sodir etishga bo'lgan urinishlar tobora kuchayib bormoqda.

Jumladan, bugungi kunda kiberterrorchilik tuzilmalari o'z g'arazli maqsadlari yo'lida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanishga urinmoqda.

Bugungi kunda dunyoda eng katta xavf solib turgan IShID guruhining internet kibermakonidagi axborot hujumi va tahdidi to'g'risida Aydarbek Tulepov o'zining "IShID fitnasi" kitobida quyidagi ma'lumotlarni beradi. IShID o'zining internet orqali go'yo Islom yo'lida "qurbon" bo'layotgani aks etgan videolavhalari va fotosuratlarini "al-Hayot" media studiyasida tayyorlanadi va internetga joylashtiriladi. Terrorchilarning targ'ibot-tashviqotlari kun sayin avj olib bormoqda. Jumladan, "Odnoklassniki", "Facebook", "Instagram", "Twitter", "VKontakte" ijtimoiy tarmoqlarida buzg'unchilik va yot g'oyalarni targ'ib qiluvchi yuzlab guruhlar mavjudligi fikrimizning yaqqol dalilidir. Shuningdek, Islom dinini noto'g'ri, qabih maqsadlarda talqin etish, dinga siyosiy tus berib, hokimiyatni qo'lga kiritishdir. Kitobda din niqobi ostidagi "rahnamolar" haqida ham yoziladi.

Tabiiyki, tarmoqning barcha foydalanuvchilari kabi ekstremistlar ham turli xil saytlar va forumlarga kirib ko'radi. Mudom shakllantirilib boriladigan dasturli ta'minotdan foydalanadi, tarmoqli ta'minot shu jumladan internet orqali maxfiy muloqot tarqatmoqda. "Al-Qoida"ning birinchi rasmiy sayti 2001-yil 11-sentabr voqealarigacha ham mavjud bo'lgan. "Al-Qoida" sayti o'sha vaqtlardagi veb-resurslardan farq qilmagan, uning katta qismini statik (turg'un, muvozanat holatidagi) tasvirlar va turlicha matn, e'lonlar (asosan arab tilida), shuningdek, bir nechta qisqa videoroliklar tashkil qilgan.

"Al-Qoida"ning rasmiy tashkiloti paydo bo'lishi, saytda boshqa din niqobidagi "dindor"larning o'zini oshkor qilishi tezlik bilan kengayib bordi. Yomg'irdan keyingi qo'ziqorinlar kabi, ularni qo'llab-quvvatlovchi ko'plab sahifalar, turli xil ko'rinishdagi forum va ijtimoiy tarmoqlar "bolalab" ketdi. Ammo uning din niqobi ostidagi ekstremistlarning diniy mafkurasi bilan tanish bo'lgan har qanday odam, kichik detallar vositasida go'yoki "hamfikir birodarlar"i orasida ekani – bugungi kunning xavfidir. Bu o'z vaqtida "Al-Qoida" tomonidan emas, balki uning tarafdorlari tomonidan yaratilgan edi va o'z navbatida, to'laqonli ijtimoiy tarmoqlarni yaratishda "asqatadigan" zamonaviy texnologiyalar dunyosida bilim darajasini namoyish etib, bu guruhning haqiqiy a'zolari diqqatini o'ziga jalb qilgan.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, bugungi kunda yoshlar ongi varuhiyatida diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Ekstremistik mafkura ta'siriga tushib qolgan yosh yigit-qizlardagi asosiy belgilar kuzatiladi:

- Uning xatti-harakatlari keskin yoki qo'pol bo'lib qoladi, noodatiy yoki jargon leksika shakllanadi;
- ma'lum bir submadaniyat qoidalariga mos ravishda birdan kiyinish uslubi va tashqi ko'rinish o'zgaradi;
- kompyuterida siyosiy-ekstremistik yoki ijtimoiy-ekstremal mazmundagi fayllar, rolik yoki tasvirlar ko'payib boradi;
- xonadonda tushunarsiz yoki noodatiy timsol va atributlar, qurol sifatida foydalanish mumkin bo'lgan sovuq predmetlar paydo bo'la boshlaydi;
- kompyuterda ko'p vaqt o'tkazib, maktab, oliy ta'lim, badiiy adabiyotga, film, kompyuter o'yinlariga aloqador bo'lmagan ta'lim bilan shug'ullanadi;
- siyosiy va ijtimoiy mavzularda ko'p gapira boshlaydi, bunda sabrsizlik hamda keskin mulohazalar kuzatiladi;

– internetdaga taxallus, parol va hokazo ekstremal-siyosiy xarakter kasb etadi.

Ma'lumki, bola tarbiyasi ota-ona, mahalla, maktab gardaniga tushadi. Bunda yoshlarni keskinlik yoki tazyiq o'tkazib to'g'ri yo'lga solib bo'lmaydi. Hech bir zo'ravonliksiz va asosli fikr-mulohazalar bilan tushuntirish ishlari olib borilishi zarur. "Kontrpropaganda" ishlari bosh tezisi – inson olamni o'zgartirish uchun mukammal bilim va chuqur mulohaza yuritsa, jamiyatda mutaxassis va avtoritetga aylansa, uning ergashuvchilari tabiiyki ko'proq bo'ladi. Shunda yaxshi maqsadlarga erishishi muqarrarligi ta'minlangan bo'ladi, deb bosim o'tkazmay, qalban yondashib bolaning ongiga "yetkazish" lozim. Bolaning xatti-harakatlarini mutlaqo qoralash kerak emas. Bu uning qarshi reaksiya – himoya pozitsiyasini qo'llashiga olib kelad

Hech qachon ekstremizm – ijtimoiy xastalik ekanligini unutmaslik lozim. Shuning uchun unga jarrohning emas, psixolog qurollari bilan yondashish kerak. Bunday "romantika"ga asosan yoshlar ishonib, bu ular energiyasini destruktiv yo'nalishga burib yuboradi. Shunday targ'ibot va tashviqot asosida shakllanish bosqichidagi yoshlar va ta'sirchan ijtimoiy qatlam vakillarida tabiiy ravishda olamni adolatliroq qilish (masalan elitalar shakllanishi, nochorlik, mehnat haqqi va karyera o'sishidagi adolatsizlik, jinoyatchilikning yuqori darajadali, oddiy fuqaro huquqini himoyalashda adolatsizlik, ishsizlik, qonuniy idoralar tomonidan siyosiy tizimga ta'sir sustligi kabi masalalar yuzasidan) xohishi yuzaga kelib, umuminsoniy qadriyatlarni rad qila boshlaydi, o'zini ijtimoiy fikrga qarshi tuta boshlaydi, ta'lim olishda mutaxassis sifatida shakllanish o'rniga, kelajagi yo'q yo'nalishga tushib qoladi.

Internetda ekstremizm bu avvalo, targ'ibot-tashviqotdir. Ekstremistlar e'tiqod qiladigan bir qator maqsad va qarashlar, qadriyatlar targ'ib qilinadi, ularning "ilg'or", "muqarrar"ligi isboti keltiriladi, qarshilar va dushmanlar aniqlanadi. Agarda tashkilot ma'lum bir submadaniyatga e'tiqod qilsa, o'zlarining targ'ibot va tashviqotida "kiberhujum mexanizmi"ni ishga soladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 28-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasining jamoat ta'lim axborot tarmog'ini tashkil etish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq ta'lim va yoshlar bo'yicha yaratilayotgan axborot resurslari yagona "ZiyoNET" milliy ta'lim tarmog'i tashkil etilgani axborot xurujlariga qarshi turishda bir "mexanizm" ekani, "Kiber jinoyatlar to'g'risida" Konvensiya, "Voyaga yetmaganlar uchun xavfsiz Internet va onlayn resurslarni joriy qilish to'g'risida" Yevropa Ittifoqi Parlamenti Assambleyasining tavsiyalari, "Bola huquqlari to'g'risida" BMT Konvensiyasi kabi qonunlar va Xalqaro Konvensiyalarni yuqorida ko'rsatilgan ta'lim muassasalariga fan sohalarining mazmunlaridan kelib chiqib o'rgatishimiz lozim deb hisoblaymiz. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, bugungi kunda axborot maydonidagi "inqilobiy yangilik" sifatida e'tirof etilayotga "kibermakon" asta-sekin jahon jamoatchiligi uchun tobora jiddiy xavf tug'dirib bormoqda. Xalqaro xavfsizlikka nisbatan ilgari ko'rilmagan din niqobidagi tahdidlar ortayotgani, kiberjinoyatchilik, kiberhujum, kibertahdid kabi tushunchalar hayotimizga kirib kelayotgani kishini xavotirga solmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. A.E. Abdusamadov "Dinshunoslik" Toshkent islom universiteti nashriyoti-matbaa birlashmashi. Toshkent-2018.
2. <https://iiau.uz/oz/news/2012>
3. <https://www.scribd.com/document/881786440/15-Kibermakonda-Din-Omili>